

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YANGI PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TA'LIMNI YUKSALTIRISH

*Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
160-IDUMning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Aslonova Nilufar Ubaydullayevna*

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishda yangi pedagogik ta'lim metodlaridan foydalanib ularni qiziqishlarini yuksaltirish bo'yicha yangi tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, metodlar, ta'lim*

Yangi O'zbekiston poydevorini quruvchilari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda ularga xalqaro toifadagi bilimlarni berish va jahon standartlariga mos ravishda adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Jamiyatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida katta o'zgarishlarni, shu jumladan vazifalari, qarashlari, maqsadlari, tushunchalari, mazmuni, didaktikasi va o'quv jarayonlari uslublari, maktab jihozlari, ish va o'quv jarayonini tashkil etish, natijada ta'lim va tarbiya o'qituvchilar, ish vaqtini va ish odatlarini o'zgartirish, o'quv jarayonini nazorat qilish, o'quv natijalari va ishning boshqa natijalarini baholash yuzaga keladi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi. «Metod» yunoncha metodos so'z bo'lib, «yo'l», tatbiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi - bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida

o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida birbiriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin. Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish, bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi, o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning ayrimlari esa, «metod» tushunchasining o'rniga «uslub» tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo «uslub» tushunchasi «metod» atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi. Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyoni mazmunidir. Har qanday pedagogik texnologiya, jumladan umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiya ham o'zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta'sirlari eng zamonaviy

talablarga javob bergan holda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va uslublar, talabalar shaxsi faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ular bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va qarashlarni birgalikda hal etish, auditoriyada ijodiy hamkorlik, ishchanlik muhitini hosil qilishga doir shakl va metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda hikoya o'qish metodi bo'yicha tavsiya. Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar, sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarning o'qish darsliklarida amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar berilgan. O'qish darsida hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrlar o'rganiladi. Bunday turli janrdagi asarlar yaratilishi, uslubi jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ham ta'siri turlicha bo'ladi. Shuning uchun, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya boshlang'ich sinflar uchun mos janr. O'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini bildirishi uchun vaqt beriladi. O'qilgan hikoya yuzasidan beriladigan savollar orqali o'quvchilarga asarning yoqqan-yoqmaganligi, qaysi qahramon xarakteri ta'sir etgan- etmaganligini aniqlanadi. Shundan so'ng hikoya syujeti, voqeaning yonalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, asarning asosiy g'oyasini ochishga qaratilgan savollar beriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ertakning o'tkir, maroqli syujeti, favqulodda ajoyib voqealari maftun etadi. Lekin hikoya janri hayotiyli bilan o'ziga xosdir. Hikoyada inson hayoti, u bilan bog'liq voqealar haqidagi lavhalar

bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri va xususiyatlari bilan qiziqadilar. Boshlang'ich sinf «O'qish» darsliklarida berilgan hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xil bo'lib, qahramonlar ham bir-biridan farq qiladi. O'quvchilar hikoyadagi qahramonlarga baho berishda, o'z shaxsiy-axloqiy tushunchalaridan kelib chiqib ta'riflaydilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarni kiritishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biridir. Psixolog olimlarning tekshiruvlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik xis etish ham kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent - 2004
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi - 2000.
3. Farxodov, T. D. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo tolerantlikni shakllantirish muammosi. *Internatsional jurnal of innovative analyses va emerging texnologiya*, 2(4), 12-15.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
5. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
6. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
7. Hakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
8. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). Исследование влияния сейсмоизоляции на динамические характеристики ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
9. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.